

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

GENDER STEREOTYPICAL REPRESENTATIONS OF FEMALE AND MALE BEHAVIOR IN UZBEK AND ENGLISH PROVERBS

Sabohat Anvarova*Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni*Email: sabohatanvarova96@gmail.com*Urgench, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: proverb, paremiology, behavior, gender stereotype, speech behavior, emotional behavior, moral norm, social control, gender asymmetry, linguocultural studies, comparative analysis, Uzbek language, English language.

Received: 03.09.26**Accepted:** 04.09.26**Published:** 05.09.26

Abstract: This article provides a comparative analysis of the representation of gender stereotypes related to female and male behavior in Uzbek and English proverbs. Since proverbs are linguistic units that preserve the behavioral norms of a people in the most concise form, they make it possible to identify the types of behavior that society expects from men and women. In the study, proverbs in both languages were classified into four categories: speech behavior, behavioral patterns related to work and activity, emotional behavior, and moral behavior. The analysis revealed that in both paremiological systems, women are expected to demonstrate “reserved speech, patience, and propriety,” while men are expected to display “keeping one’s word, composure, and determination.” At the same time, female behavior is regulated in considerably greater detail than male behavior, which constitutes one of the main manifestations of gender asymmetry in paremiology. The findings of the study are of theoretical and practical significance for comparative linguistics, linguocultural studies, and language teaching methodology.

O‘ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARIDA AYOL VA ERKAK XULQ-ATVORINING GENDER STEREOTIP TASVIRI

Sabohat Anvarova*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*sabohatanvarova96@gmail.com*Urganch, O‘zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: maqol, paremiologiya, xulq-atvor, gender stereotipi, nutqiy xulq, hissiy xulq, axloqiy meʼyor, ijtimoiy nazorat, gender assimetriyasi, lingvomadaniyatshunoslik, qiyosiy tahlil, oʻzbek tili, ingliz tili.

Annotatsiya: Ushbu maqolada oʻzbek va ingliz xalq maqollarida ayol va erkak xulq-atvoriga oid gender stereotiplarining tasvirlanishi qiyosiy tarzda tahlil qilinadi. Maqollar xalqning xulq-atvor meʼyorlarini eng ixcham shaklda saqlovchi til birligi boʻlgani bois, ular orqali jamiyat erkak va ayoldan qanday xatti-harakat kutishini aniqlash mumkin. Tadqiqotda har ikki tildagi maqollar toʻrt yoʻnalish boʻyicha tasniflandi: nutqiy xulq-atvor, mehnat va faoliyat xulq-atvori, hissiy-emotsional xulq-atvor hamda axloqiy xulq-atvor. Tahlil natijalari shuni koʻrsatdiki, har ikki paremiologik tizimda ham ayolga nisbatan “kamgaplik, sabr va odob”, erkakka nisbatan esa “soʻzga vafodorlik, vazminlik va qatʼiyat” talablari qoʻyiladi. Ayni paytda ayol xulq-atvori erkak xulq-atvoriga qaraganda ancha batafsil meʼyorlashtirilgan boʻlib, bu paremiologiyadagi gender assimetriyasining asosiy koʻrinishi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va til oʻqitish metodikasi uchun nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.

ГЕНДЕРНО-СТЕРЕОТИПНОЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЕ О ПОВЕДЕНИИ ЖЕНЩИН И МУЖЧИН В УЗБЕКСКИХ И АНГЛИЙСКИХ ПОСЛОВИЦАХ

Сабохат Анварова

Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни

E-mail: sabohatanvarova96@gmail.com

Ургенч, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: пословица, паремиология, поведение, гендерный стереотип, речевое поведение, эмоциональное поведение, нравственная норма, социальный контроль, гендерная асимметрия, лингвокультурология, сопоставительный анализ, узбекский язык, английский язык.

Аннотация: В статье проводится сопоставительный анализ репрезентации гендерных стереотипов, связанных с поведением женщин и мужчин, в узбекских и английских народных пословицах. Поскольку пословицы являются языковыми единицами, сохраняющими нормы поведения народа в наиболее лаконичной форме, посредством них можно определить, какого поведения общество ожидает от мужчин и женщин. В исследовании пословицы обоих языков были классифицированы по четырём направлениям: речевое поведение, поведение в сфере труда и деятельности,

эмоциональное поведение и нравственное поведение. Результаты анализа показали, что в обеих паремиологических системах от женщины ожидаются «немногословие, терпение и воспитанность», тогда как от мужчины — «верность данному слову, сдержанность и решительность». В то же время женское поведение нормируется значительно более подробно, чем мужское, что является одним из основных проявлений гендерной асимметрии в паремиологии. Результаты исследования имеют теоретическое и практическое значение для сопоставительной лингвистики, лингвокультурологии и методики преподавания языков.

Kirish. Har bir xalq o'z a'zolaridan muayyan xulq-atvorni kutadi va bu kutish tilda mustahkamlanadi. Maqollar aynan shu vazifani bajaradi: ular voqelikni tasvirlab qolmay, unga baho beradi va tinglovchini kerakli xatti-harakatga yo'naltiradi. Shu ma'noda maqolni jamoaviy tajribaning qisqa, an'anaviy va didaktik ifodasi sifatida ta'riflash mumkin [1; 9–11-b.]. Xulq-atvorga oid maqollarning muhim xususiyati shundaki, ular ko'pincha jinsga qarab farqlanadi. Ayoldan kutiladigan xatti-harakat bilan erkakdan kutiladigan xatti-harakat bir xil emas, va bu farq maqol matnida ochiq yoki yashirin tarzda ifodalanadi. Aynan mana shu farqlar gender stereotiplarini tashkil qiladi.

Muammoning dolzarbligi shundaki, o'zbek va ingliz tilshunosligida maqollarning semantik, uslubiy va tarbiyaviy jihatlari ko'p o'rganilgan bo'lsa-da, aynan xulq-atvor me'yorlarining gender nuqtayi nazaridan qiyosiy tadqiqi kam uchraydi. Holbuki, bir-biridan uzoq ikki madaniyatda bir xil xulq talabining takrorlanishi yoki aksincha, farqlanishi tilning madaniyat bilan bog'liqligini isbotlovchi eng ishonchli dalildir.

Maqolaning maqsadi o'zbek va ingliz xalq maqollarida ayol va erkak xulq-atvorining qanday tasvirlanishini aniqlash va ikki paremiologik tizim o'rtasidagi umumiy hamda farqli jihatlarni ochib berishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: xulq-atvorga oid maqollarni tematik guruhlariga ajratish; har bir guruhda ayol va erkakka qo'yilgan talablarni qiyoslash; stereotiplarning universal va milliy qatlamlarini farqlash.

Adabiyotlar sharhi. Paremiologiyaning nazariy asoslari G.L.Permyakov tadqiqotlarida ishlab chiqilgan bo'lib, u maqollarni mantiqiy-semiotik jihatdan tasniflab, turli tillardagi paremiyalarni qiyoslash uchun yagona metodologik asos yaratdi [2; 15–23-b.]. Bu tasnif tipologik jihatdan uzoq tillarni solishtirishda hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Til birliklarining madaniy mazmuni masalasi V.N.Teliya ishlarida chuqur yoritilgan: olim frazeologik va

paremiologik birliklardagi madaniy konnotatsiya tushunchasini asoslab bergan [12; 214–220-b.]. V.A.Maslova esa lingvomadaniyatshunoslikning tahlil tamoyillarini tizimlashtirib, til birligidan madaniy ma'lumot ajratib olish yo'llarini ko'rsatgan [13; 46–52-b.]. Gender masalasining lingvistik jihatdan o'rganilishi R.Lakoffning tadqiqotidan boshlangan. Olima ayollar nutqiga xos deb hisoblangan ehtiyotkorlik, noaniqlik va yumshatish vositalarini tahlil qilib, til birliklarida ayol obrazining ikkinchi darajali mavqeda aks etishini ko'rsatdi [4; 45–48-b.]. D.Spender bu yo'nalishni davom ettirib, tilning erkak markazli tuzilishini tanqid qildi [5; 30–35-b.]. D.Tannen esa muammoga boshqa nuqtayi nazardan yondashib, erkak va ayol nutqiy xulqidagi farqni ustunlik emas, balki turli muloqot madaniyati natijasi deb izohladi [6; 74–79-b.]. J.Coates gender va til munosabatini ijtimoiy amaliyot sifatida talqin qiladi [7; 12–20-b.], J.Holmes esa bu qarashlarni ish muhitidagi nutq materialida sinab ko'rdi [8; 33–41-b.].

Slavyan tilshunosligida gender tadqiqotlarini alohida yo'nalish sifatida shakllantirishda A.V.Kirilinaning xizmati katta [14; 89–95-b.]. O'zbek tilshunosligida esa til va tafakkur munosabati, milliy dunyoqarashning til birliklarida aks etishi masalalari Sh.Safarov [15; 52–60-b.] va N.Mahmudov [16; 3–16-b.] tomonidan tadqiq etilgan. Xulq-atvor tasvirining metaforik asosi masalasida Z.Kövecsesning kognitiv metafora nazariyasi [9; 17–24-b.], madaniy kalit tushunchalar orqali xalq dunyoqarashini aniqlash borasida esa A.Wierzbickaning yondashuvi [10; 1–15-b.] muhim metodologik ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, gender va til masalasi ingliz tilshunosligida keng ishlangan, o'zbek tilshunosligida esa asosan ayol obrazining umumiy tavsifi bilan cheklanib qolgan. Xulq-atvor me'yorlarining ikki tilda qiyosiy tadqiqi esa deyarli uchramaydi. Ushbu maqola ana shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Metodologiya. Tadqiqot materiali sifatida o'zbek tili bo'yicha Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovning "Hikmatnoma" izohli lug'ati [17] hamda "O'zbek xalq maqollari" to'plami [18], ingliz tili bo'yicha esa "The Oxford Dictionary of English Proverbs" manbasi [3] xizmat qildi. Tanlov mezonlari quyidagilardan iborat bo'ldi: maqolda ayol yoki erkakka nisbatan aniq xulq-atvor talabi mavjudligi; maqolning xalq orasida keng tarqalganligi; unda baholovchi element borligi. Shu mezonlar asosida har ikki tildan xulq-atvorga oid maqollar ajratib olindi va to'rt tematik guruhga taqsimlandi: 1) nutqiy xulq-atvor; 2) mehnat va faoliyat xulq-atvori; 3) hissiy-emotsional xulq-atvor; 4) axloqiy xulq-atvor va ijtimoiy nazorat.

Ishda qiyosiy-tipologik metod, komponent tahlili, tematik guruhlash hamda lingvomadaniy talqin usullaridan foydalanildi. Har bir guruh doirasida avval maqolning semantik yadrosi aniqlandi, so'ngra unga yuklangan baho belgilandi va nihoyat ikki tildagi natijalar o'zaro solishtirildi.

Tahlilning nazariy ahamiyati til birliklari orqali xulq-atvor me'yorlarining qanday mustahkamlanishini ko'rsatishdan iborat. Amaliy ahamiyati esa qiyosiy tilshunoslik, madaniyatlararo muloqot va til o'qitish amaliyotida foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi [11; 55–63-b.].

Natijalar va muhokama. 1. Nutqiy xulq-atvor. Har ikki tilda ham eng barqaror stereotip nutq bilan bog'liq. Ingliz paremiologiyasida ayolning kamgapligi bevosita fazilat sifatida taqdim etiladi: "Silence is a woman's best garment" (Sukut ayolning eng chiroyli kiyimi). Bu yerda kiyim metaforasi diqqatga sazovor: ayolning tashqi ko'rinishi bilan bog'liq tushuncha uning nutqiy xulqiga ko'chiriladi. Ayolning ko'p gapirishi esa salbiy baholanadi: "A woman's tongue wags like a lamb's tail" (Ayolning tili qo'zichoqning dumidek qimirlaydi), "Three women make a market" (Uch ayol bir bozor). O'zbek maqollarida esa nutqiy me'yor ko'pincha jinsga bog'lanmagan holda, umumiy tarzda beriladi: "Oz gapir, ko'p ish qil". Ayolga nisbatan bu talab bevosita emas, odob tushunchasi orqali ifodalanadi. Erkakka nisbatan esa asosiy me'yor kamgaplik emas, aytilgan so'zga sodiqlikdir: "Er yigitning so'zi bitta". Ingliz tilida bunga "A man of words and not of deeds is like a garden full of weeds" (So'zi bor, ishi yo'q odam begona o't bosgan bog') maqoli mos keladi.

2. Mehnat va faoliyat xulq-atvori. Bu guruhda ikki tilda ham "ichki makon — tashqi makon" oppozitsiyasi amal qiladi. O'zbek maqoli "Er topar, xotin tutar" mehnat taqsimotini aniq belgilaydi: erkak faoliyati uy tashqarisiga, ayol faoliyati uy ichiga yo'naltiriladi. "Yaxshi xotin — uy ko'rki" maqolida esa ayol mehnatining natijasi uyning holati orqali baholanadi. Ingliz tilida ayni g'oya "Men make houses, women make homes" (Erkaklar bino quradi, ayollar uy yaratadi) maqolida ifodalangan. Ayol mehnatining tugamasligi esa alohida ta'kidlanadi: "A woman's work is never done" (Ayol ishi hech qachon tugamaydi). Bu maqolda ayol mehnati bir vaqtning o'zida tan olinadi va tabiiy holat sifatida qabul qilinadi, ya'ni baho ijobiy bo'lsa-da, mavjud tartibni o'zgartirishga chaqirmaydi.

3. Hissiy-emotsional xulq-atvor. Bu guruhda ikki tilning farqi eng aniq ko'rinadi. O'zbek maqollarida ayoldan kutiladigan asosiy hissiy sifat — sabr. Oilaviy nizolar "Er-xotinning urushi — doka ro'molning qurishi" maqolida vaqtinchalik va yengil hodisa sifatida talqin qilinib, chidamlilik g'oyasi ilgari suriladi. Erkakdan esa vazminlik va o'zini tuta bilish talab etiladi. Ingliz paremiologiyasida ayolning hissiy holati ko'proq kuchli va xavfli hodisa sifatida tasvirlanadi: "Hell hath no fury like a woman scorned" (Rad etilgan ayolning g'azabi do'zaxdan ham qattiq). Bu ifoda ayolga passivlik emas, aksincha, faol va kuchli hissiy subyekt maqomini beradi. Erkak xulqidagi qat'iyat esa "Faint heart never won fair lady" (Yuraksiz kishi go'zalni qo'lga kirita olmaydi) maqolida rag'batlantiriladi.

4. Axloqiy xulq-atvor va ijtimoiy nazorat. Har ikki tilda ham ayol xulqi erkak xulqiga qaraganda ancha batafsil me'yorlashtirilgan. O'zbek maqollarida odob tushunchasi markaziy o'rin egallaydi: "Odobli qiz — el ko'rki". Bu yerda shaxsning xulqi butun jamoa bahosi bilan bog'lanadi, ya'ni ijtimoiy nazorat mexanizmi ishga tushadi. Ingliz maqollarida esa belgilangan tartibning buzilishi tabiiy bo'lmagan hodisa sifatida ko'rsatiladi: "It is a sad house where the hen crows louder than the cock" (Tovuq xo'rozdan baland qichqirgan uy — baxtsiz uy), "A whistling woman and a crowing hen are neither fit for God nor men" (Hushtak chaladigan ayol ham, qichqiradigan tovuq ham na Xudoga, na odamga yaraydi). Bu maqollarda zoonimik metafora orqali ijtimoiy tartib biologik tartibga tenglashtiriladi, bu esa stereotipni o'zgarmas qilib ko'rsatishga xizmat qiladi.

Qiyosiy natijalar. Tahlil har ikki paremiologik tizimda uch xil umumiylik borligini ko'rsatdi. Birinchidan, ayolning kamgapligi ikkala tilda ham ijobiy baholanadi. Ikkinchidan, mehnat taqsimoti makon oppozitsiyasi orqali beriladi va bu chegara buzilganda salbiy baho paydo bo'ladi. Uchinchidan, ayol xulqiga oid maqollar soni erkak xulqiga oid maqollardan sezilarli darajada ko'p. Bu ayolning ijtimoiy jihatdan ko'proq kuzatuv ostida bo'lganini bildiradi.

Farqlar esa quyidagilardan iborat: o'zbek maqollarida ayol xulqining asosiy o'lchovi sabr va odob bo'lsa, ingliz maqollarida nutq va mustaqillik darajasi hisoblanadi. O'zbek materialida me'yor ko'pincha maslahat va o'git shaklida, ingliz materialida esa ogohlantirish va kinoya shaklida beriladi. Bundan tashqari, ingliz paremiologiyasida ayolning hissiy kuchini tan oluvchi maqollar mavjud bo'lsa, o'zbek materialida bunday talqin uchramaydi. Shunday qilib, ikki tildagi stereotiplarning yo'nalishi bir xil, ammo ularni ifodalash usuli va asoslash mantig'i turlichadir. Bu farq tilning tuzilishidan emas, madaniy dunyoqarashdan kelib chiqadi.

Xulosa. O'zbek va ingliz xalq maqollarida ayol va erkak xulq-atvorining tasvirlanishi qiyosiy tahlil qilinganda quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, har ikki paremiologik tizimda ham xulq-atvor me'yorlari jinsga qarab farqlanadi: ayoldan kamgaplik, sabr, odob va uy ishlariga sadoqat, erkakdan esa so'zga vafodorlik, vazminlik, qat'iyat va ta'minot mas'uliyati talab etiladi.

Ikkinchidan, ayol xulqi erkak xulqiga qaraganda ancha batafsil me'yorlashtirilgan bo'lib, unga beriladigan baho qutblangan, u yo yuqori darajada maqtaladi, yo keskin tanqid qilinadi. Erkak xulqiga nisbatan baho esa barqarorroqdir. Aynan shu holat paremiologiyadagi gender assimetriyasining asosiy ko'rinishi hisoblanadi.

Uchinchidan, stereotiplarning bir-biridan mustaqil ikki madaniyatda takrorlanishi ularning muayyan qismi umuminsoniy qatlamga mansubligini ko'rsatadi. Milliy o'ziga xoslik esa stereotipning mazmunida emas, uni ifodalash usuli va asoslash mantig'ida namoyon bo'ladi:

o'zbek maqollarida o'git va jamoa bahosi, ingliz maqollarida ogohlantirish va kinoya yetakchi vosita hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va gender tadqiqotlari bo'yicha ma'ruzalarda, shuningdek, tarjima amaliyoti va madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda foydalanilishi mumkin. Kelgusi tadqiqotlarda maqollarning zamonaviy diskursdagi o'zgargan shakllarini o'rganish istiqbolli yo'nalish bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mieder, W. (2004). *Proverbs: A Handbook*. Westport: Greenwood Press. 9–11-betlar.
2. Permyakov, G. L. (1979). *From Proverb to Folk-tale: Notes on the General Theory of Cliché*. Moscow: Nauka. 15–23-betlar.
3. Wilson, F. P. (ed.) (1970). *The Oxford Dictionary of English Proverbs*. 3rd ed. Oxford: Clarendon Press.
4. Lakoff, R. (1975). *Language and Woman's Place*. New York: Harper & Row. 45–48-betlar.
5. Spender, D. (1980). *Man Made Language*. London: Routledge & Kegan Paul. 30–35-betlar.
6. Tannen, D. (1990). *You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation*. New York: William Morrow. 74–79-betlar.
7. Coates, J. (2015). *Women, Men and Language*. 3rd ed. London: Routledge. 12–20-betlar.
8. Holmes, J. (2006). *Gendered Talk at Work: Constructing Gender Identity Through Workplace Discourse*. Oxford: Blackwell. 33–41-betlar.
9. Kövecses, Z. (2010). *Metaphor: A Practical Introduction*. 2nd ed. Oxford: Oxford University Press. 17–24-betlar.
10. Wierzbicka, A. (1997). *Understanding Cultures Through Their Key Words*. Oxford: Oxford University Press. 1–15-betlar.
11. Cameron, D. (1992). *Feminism and Linguistic Theory*. 2nd ed. London: Macmillan. 55–63-betlar.
12. Телия, В. Н. (1996). *Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты*. Москва: Языки русской культуры. 214–220-betlar.
13. Маслова, В. А. (2001). *Лингвокультурология*. Москва: Академия. 46–52-betlar.
14. Кирилина, А. В. (1999). *Гендер: лингвистические аспекты*. Москва: Институт социологии РАН. 89–95-betlar.
15. Safarov, Sh. (2006). *Kognitiv tilshunoslik*. Jizzax: Sangzor. 52–60-betlar.

16. Mahmudov, N. (2012). Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab... // O‘zbek tili va adabiyoti. № 5. 3–16-betlar.

17. Shomaqsudov, Sh., Shorahmedov, Sh. (1990). Hikmatnoma: o‘zbek maqollarining izohli lug‘ati. Toshkent: O‘zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi.

18. Mirzayev, T., Musoqulov, A., Sarimsoqov, B. (2005). O‘zbek xalq maqollari. Toshkent: Sharq.